



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

TARJIMA JARAYONIDA STILISTIK MOSLIK VA EKSPRESSIVLIKNI SAQLASH MUAMMOLARI

Umida Matmurotova
Jizzax shahri, O'zbekiston
umidamatmurotova@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15184084>

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarjima jarayonida stilistik vositalarni to'g'ri uzatish muammosi, ularning ekvivalentligi va tarjimon oldida turgan asosiy vazifalar tahlil qilinadi. Shuningdek, tarjimada ekspressivlikni saqlab qolish va badiiy asar tarjimasi bilan bog'liq muhim jihatlar yoritiladi. Maqolada turli tillarning stilistik tizimlari o'rtasidagi farqlar, madaniy tafovutlar va tarjimada ekvivalentlikni ta'minlash usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tarjima, stilistik vositalar, ekspressivlik, ekvivalentlik, badiiy tarjima.

Hozirgi vaqtda tarjima nazariyasining muhim jihatlaridan biri — tilning stilistik vositalarini to'g'ri va aniq tarzda ifodalashdir. Ushbu masala hali to'liq o'rganilmagan va ko'plab tadqiqotchilar va tilshunoslar tomonidan izlanishlar olib borilmoqda. San'at asari bo'lmish obrazli ma'lumotlarni tarjima qilish zaruriyati tarjimonning asosiy vazifasiga aylanishi kerak. Xuddi rassom tasvirlarni yaratayotganda unga ranglarni moslab joylashtirishidagi jozibadorlik, tarjima jarayonlariga ham ko'chmog'i lozim. Bu esa o'z navbatida asar asliyatga yaqinligining stilistik effektini saqlab qolishga yordam beradi. Ammo tarjima jarayonida “tarjima” atamasining aniq ta'rifini tushunish zarur. Tarjima – bu nafaqat tillararo aloqa vositasi, balki madaniy tafovutlarni yengib o'tishga xizmat qiluvchi murakkab jarayondir. Xususan, badiiy tarjima nafaqat lug'aviy ma'nolarni yetkazishni, balki matnning ekspressivligini, hissiy ohangini va stilistik xususiyatlarini saqlashni ham talab qiladi. Bu esa tarjimon oldida muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Tarjimonlik faqat boy lug'atga ega bo'lishni talab etmaydi, albatta, lug'at boyligi muhim, lekin bu faqat bir tomonlama o'lchovdir. Tarjimodagi muvaffaqiyat ko'proq matndagi ekspressiyani to'g'ri aniqlash va tarjimaga yuksak hissiylikni ifodalash bilan ham bog'liq.

Stilistik vositalarni tarjima qilishdagi asosiy muammolar: 1) **Turli tillarning stilistik tizimlari** bir-biridan farqlanadi; 2) **Ekspressivlikni saqlab qolish** tarjimon oldida katta mas'uliyat yuklaydi. 3) **Metafora, metonimiya, o'xshatish, epitet kabi stilistik vositalar** har doim ham bevosita tarjima qilinavermaydi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi **badiiy tarjimada stilistik vositalarning to'g'ri uzatilishi va ularning ekvivalentligini ta'minlash masalalarini tahlil qilishdan** iborat. Shu jumladan: 1) Stilistik vositalarning tarjima jarayonidagi



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ahamiyatini aniqlash; 2) **Ekvivalentlik tamoyillarini** ko'rib chiqish va ularning tarjimada qanday qo'llanilishini o'rganish; 3) **Madaniy tafovutlar va kontekstga bog'liq muammolarni** tahlil qilish; 4) Tarjimada **stilistik moslikni** ta'minlash usullarini aniqlash.

Stilistik vositalar matnning badiiy jihatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular orqali muallif o'zining g'oyalarini, his-tuyg'ularini va dunyoqarashini ifodalaydi. Tarjima jarayonida bu vositalarni to'g'ri uzatish asarning asliyatiga yaqinligini ta'minlaydi. Biroq, turli tillarning stilistik tizimlari bir-biridan farq qiladi, bu esa tarjimada qiyinchiliklar tug'diradi. Masalan, bir tilda keng qo'llaniladigan metafora boshqa tilda hech qanday ma'noga ega bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun tarjimon nafaqat lug'at boyligiga, balki madaniy, tarixiy va kontekstual jihatlarni ham chuqur tushunishiga ega bo'lishi kerak.

Tarjimada "Uslubiy kalit" degan tushuncha bor, unga ko'ra ijodkor asarining betakrorligi shunday kalitga bog'lik. Turli yozuvchilarning uslublari bir-biridan farqlanadi, har bir yozuvchi o'ziga xos uslubga ega bo'lib, ular o'z asarlarida xilma-xil uslub yo'nalishlarini namoyon etadi. Bunday uslubiy farqlar yozuvchi asarlarini bir-biridan ancha farq qiladi, yoki bir asar ichida turli uslubiy chiziqlar bir-biriga aralashishi mumkin. Bularning barchasi tarjimonni asliyat matnning uslubiga mos keladigan "kalit"ni topishga undaydi. Tarjimada munosib uslub kalitini topish asarning yozilish uslubi bilan g'oyasi hamda muallif dunyoqarashi o'rtasidagi bog'lanishni to'g'ri belgilash, marom, ohang, sintaktik tarz va timsollar silsilasiga xos xususiyatlarni to'g'ri tayin qila bilishga bog'liq. Biron asarni o'girishda maqbul uslub kaliti topilmas ekan, tarjima asl nusxaga teng qiymatlilik holatida bo'la olmaydi. [3:205]

Tarjimada stilistik moslik muammosi

Badiiy matnlarni tarjima qilish jarayonida tarjimon muallifning his-tuyg'ularini, kayfiyatini, o'y-hayol-u niyatlarini to'g'ri yetkazishi zarur. Lekin turli tillarning stilistik tizimlari o'ziga xos bo'lib, bir til uchun tabiiy bo'lgan uslubiy vosita boshqa tilda o'xshash ekvivalentga ega bo'lmasligi mumkin. Shu sababli tarjimada ekvivalentlik tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Tarshumashunoslikda uslubiy moslik, muvofiqlik yokida stilistik muvofiqlik kabi tushunchalar mavjud bo'lib, *stilistik muvofiqlik* bu – asl va tarjima matn o'rtasida muvofiqlik sodir bo'lganda, ya'ni asl matnning stilistik invariantini adekvat tarzda aks ettirgan holatlarda aytiladi. Aynan tarjima matnning ekspressivlik xususiyatlarini inobatga oladigan bo'lsak, unda ekvivalentlikni ikki darajada – semantik va stilistik jihatdan o'rganish va bu jarayonni "tarjimaning asosiy muammosi" deb keltirishimiz mumkin. Ayniqsa,



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

metafora, metonimiya, o'xshatish, sifatlash (eptet) kabi uslubiy vositalarni tarjima qilishda muammolar kelib chiqadi. Ba'zan tarjimon muallif uslubini to'g'ridan-to'g'ri nusxalashga intiladi, biroq bu har doim ham samarali natija bermaydi. Bunday holatda stilistik kompensatsiya usuli qo'llaniladi, ya'ni tarjimon matndagi yo'qotilgan ifodaviy vositani boshqa joyda kompensatsiya qiladi. Ingliz olimi P. Nyumark bu usulni "tarjimaning ijodiy jihati" deb ta'riflaydi va uni badiiy tarjimaning muhim qismi sifatida ko'rsatadi [4: 75].

Stilistik vositalarni tarjima qilish jarayonida bir qator qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin, jumladan:

Kontekstga bog'liqlik – bir tildagi obraz yoki metafora boshqa tilda tushunarli bo'lmasligi mumkin.

Madaniy tafovutlar – ba'zi stilistik vositalar faqat ma'lum bir madaniyatda ishlatiladi va ularni boshqa madaniyatga moslashtirish talab etiladi.

Ekspressivlik darajasi – tarjima jarayonida matnning ta'sirchanlik darajasi saqlanishi kerak.

Tarjimada ekvivalentlik tushunchasi bir necha darajalarda o'rganiladi. Stilistik vositalarning ekvivalentligini ta'minlashda quyidagi yondashuvlar mavjud bo'lib ularga formal-ekvivalent tarjima, semantik-ekvivalent tarjima, funksional-ekvivalent tarjima, adaptatsiya, kompensatsiyalarni misol qilib keltirish mumkin.

Baker kompensatsiyani tarjimada stilistik vositalarni muqobil joyda ishlatish orqali ekvivalentlik yaratish vositasi deb hisoblaydi. **Nyumark** fikricha, kompensatsiya usuli ayniqsa badiiy adabiyot tarjimasida muhimdir.

Ekspressivlik va tarjimonning roli

Tarjimon matnning badiiyligini saqlab qolish bilan birga, o'quvchiga uni tushunarli shaklda yetkazishi lozim. Ba'zan tarjimon matnni haddan tashqari soddalashtirishga yoki uni "yaxshi o'qiladigan" shaklga keltirishga harakat qiladi. Natijada tarjima asl matndan uzoqlashib, "tarjima tili" deb ataluvchi silliq, ammo badiiy jihatdan zaif variant paydo bo'ladi. Tarjimashunoslikda bu kabi tushunchalar uslubiy susaytirish yoki stilistik zaiflashuv ko'rinishida sodir bo'ladi. Bunda asliyatdagi serjilo uslub vositalarining ta'sirchanligini tarjimada susaytirish yoki ancha zaif jaydari usullar bilan ifodalash nazarda tutiladi [3:205]. Shu sababli tarjimon asarning estetik qiymatini yo'qotmasligi lozim.

Shuningdek, ba'zan tarjimon asliyatni yetkazishga haddan tashqari berilib ketib, muallif uslubidan chiqib ketishi mumkin. Bunday holatda tarjimon o'zining shaxsiy fikrlari va his-tuyg'ularini qo'shib yuborishi xavfi paydo bo'ladi. Ideal tarjima esa muallif va tarjimon o'rtasidagi muvozanatni saqlash orqali amalga oshiriladi. Ingliz



XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

tilshunosi S. Bassnett ta'kidlashicha, tarjimon asarning madaniy kontekstini hisobga olgan holda, muallifning uslubini saqlab qolishi kerak [1:130].

Tarjima jarayonida stilistik vositalarni to'g'ri uzatish va ularning ekvivalentligini ta'minlash tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayon nafaqat til bilimini, balki madaniy, tarixiy va adabiy jihatlarni chuqur tushunishni talab qiladi. Tarjimon asarning estetik qiymatini saqlab qolish, ekspressivligini uzatish va uslubiy moslikni ta'minlash orqali tarjimoni original asar darajasiga yaqinlashtirishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkin:

1. Tarjimada ekvivalentlikni ta'minlash uchun turli strategiyalar va usullardan foydalanish zarur.
2. Stilistik vositalarni to'g'ri uzatish uchun madaniy tafovutlar va kontekstni hisobga olish muhim.
3. Tarjimon asarning estetik qiymatini yo'qotmasligi va muallifning uslubini saqlab qolishi kerak.

Badiiy tarjima – bu nafaqat tillararo, balki madaniyatlararo ko'prikdir. Tarjimon esa ushbu ko'prikn quruvchi me'mor hisoblanadi. Uning vazifasi – asarning go'zalligini, ma'nosini va hissiyotini yangi til va madaniyatda jonlantirishdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Bassnett S. "Translation Studies". – London: Routledge, 1991. – 130 p.
2. Baker, M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge. 2018. p. 104
3. K. Jo'rayev, M. Rasulova, M. Axmedova "Tarjimashunoslik" – Toshkent: "Akademnashr", 2015. – 317 b.
4. Newmark P. "A Textbook of Translation". – London: Prentice Hall, 1988. – 75 p.
5. Matmurotova, U. (2024). BADIY TARJIMADA STILISTIK MUVOFIQLIK - STILISTIK VOSITALARDAN BIRI O'XSHATISH MISOLIDA. *Farg'ona Davlat Universiteti*, 30(4), 76. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/3958>